

2023- yil yanvar-aprel oylari uchun
dastlabki ma'lumot



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi boshqarmasi:
(61) 222-67-45



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Respublikada bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-aprel oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **155,3 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **42,7 mln. AQSH** dollariga yoki **78,4 %** ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023-y.: **155,3** 78,4 %

(2022-y.: 197,9)



Saldo

2023-y.: -19,5 (2022-y.: -34,1)



Eksport

2023-y.: **87,4** 75,3 %

(2022-y.: 116,0)



Tovarlari: **87,0**



Xizmatlari: **0,3**



Import

2023-y.: **67,9** 82,9 %

(2022-y.: 81,9)



Tovarlari: **61,2**



Xizmatlari: **6,7**



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **87,4** mln. AQSH dollariga (**75,3** % ni tashkil etdi) va import hajmi **67,9** mln. AQSH dollariga (**82,9** % ni tashkil etdi) yetdi. Hisobot davrida **19,5** mln. AQSH dollari qiymatida ijobiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)

<p>Turkiya</p> <p>TSA – 34,1</p> <p>Eksport: 33,1 Import: 1,0</p> <p> 22,0 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 34,2</p> <p>Eksport: 19,6 Import: 14,6</p> <p> 22,0 %</p>	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 24,2</p> <p>Eksport: 11,4 Import: 12,8</p> <p> 15,6 %</p>	<p>Latviya</p> <p>TSA – 9,0</p> <p>Eksport: 8,9 Import: 0,1</p> <p> 5,8 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 17,3</p> <p>Eksport: 7,2 Import: 10,1</p> <p> 11,2 %</p>
<p>Estoniya</p> <p>TSA – 0,9</p> <p>Eksport: 0,9 Import: 0,0</p> <p> 0,6 %</p>	<p>Gruziya</p> <p>TSA – 0,9</p> <p>Eksport: 0,9 Import: 0,0</p> <p> 0,6 %</p>	<p>Tojikiston</p> <p>TSA – 0,7</p> <p>Eksport: 0,7 Import: 0,0</p> <p> 0,4 %</p>	<p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 0,6</p> <p>Eksport: 0,6 Import: 0,0</p> <p> 0,4 %</p>	<p>Niderlandiya</p> <p>TSA – 0,7</p> <p>Eksport: 0,4 Import: 0,3</p> <p> 0,4 %</p>

Qoraqalpog'iston Respublikasi jahonning **50** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Turkiyada (**22,0 %**), XXRda (**22,0 %**), Rossiyada (**15,6 %**), Qozog'istonda (**11,2 %**), Latviyada (**5,8 %**), Gruziya da (**0,6 %**) va Estoniyada (**0,6 %**) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



Turkiya – 22,0



Xitoy Xalq Respublikasi – 22,0



Rossiya Federatsiyasi – 15,6























Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Turkiya	43,2	41,6	34,2
 <i>Eksport</i>	38,6	37,2	33,1
<i>Import</i>	4,6	4,4	1,1
XXR	46,1	61,6	34,2
 <i>Eksport</i>	33,1	31,5	19,6
<i>Import</i>	13	30,1	14,6
Rossiya	39,1	28,8	24,2
 <i>Eksport</i>	26,8	10,2	11,4
<i>Import</i>	12,3	18,6	12,8
Latviya	14,2	18,2	9,0
 <i>Eksport</i>	14	18,1	8,9
<i>Import</i>	0,2	0,1	0,1
Qozog'iston	19,2	16	17,3
 <i>Eksport</i>	10,7	6,6	7,2
<i>Import</i>	8,5	9,4	10,1
Estoniya	0,5	0,7	0,9
 <i>Eksport</i>	0,5		0,9
<i>Import</i>		0,7	
Gruziya	1,0	0,7	0,9
 <i>Eksport</i>	1,0	0,7	0,9
<i>Import</i>	-	-	-
Tojikiston	1,3	0,2	0,7
 <i>Eksport</i>	1,3	0,2	0,7
<i>Import</i>	-	-	0
Afg'oniston	2,0	2,4	0,6
 <i>Eksport</i>	2,0	2,4	0,6
<i>Import</i>	-	-	-
Niderlandiya	0,8	0,5	0,7
 <i>Eksport</i>			0,4
<i>Import</i>	0,8	0,5	0,3

Davlatlar		2021- y.	2022- y.	2023- y.
Fransiya		1,6	1	0,5
	<i>Eksport</i>	1,2	0,8	0,4
	<i>Import</i>	0,4	0,2	0,1
Litva		1,5	2,3	1,0
	<i>Eksport</i>	1,2	0	0,3
	<i>Import</i>	0,3	2,3	0,7
Portugaliya		0,1	0	0,3
	<i>Eksport</i>	0,1		0,3
	<i>Import</i>	-	-	-
Koreya Respublikasi		6,9	6,6	5,4
	<i>Eksport</i>	0,4	0,7	0,3
	<i>Import</i>	6,5	5,9	5,1
Pokiston		0,3	0	0,1
	<i>Eksport</i>	0,1	0	0,1
	<i>Import</i>	0,2		
Qirg'iz Respublikasi		2,8	3,0	1,4
	<i>Eksport</i>	1,8	2,2	0,1
	<i>Import</i>	1,0	0,8	1,3
Ukraina		7,8	1,7	0,2
	<i>Eksport</i>	7,5	1,6	0,2
	<i>Import</i>	0,3	0,1	-
Hindiston		0,2	0,1	0,3
	<i>Eksport</i>	0,1	0,1	0,1
	<i>Import</i>	0,1	0	0,2
Germaniya		4,1	0,8	2,7
	<i>Eksport</i>	0,2	0,2	0,1
	<i>Import</i>	3,9	0,6	2,6
Misr		0	0	0,1
	<i>Eksport</i>		0	0,1
	<i>Import</i>	-	-	-



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TUMANLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2023- yil yanvar-aprel)*

	Hajm Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	155,3	78,4	100,0
Nukus shahri	83,1	72,3	53,5
<i>hududlar:</i>			
Amudaryo	6,8	242,8	4,4
Beruniy	4,4	47,2	2,8
Bo'zatov	0,5	98,6	0,3
Qorao'zak	4,9	31,5	3,1
Kegeyli	1,8	54,6	1,2
Qo'ng'iro't	3,6	141,5	2,3
Qonliko'l	7,1	171,2	4,6
Mo'ynoq	9,2	94,5	5,9
Nukus	1,5	110,8	1,0
Taxiatosh	5,4	56,4	3,5
Taxtako'pir	0,2	45,2	0,1
To'rtko'l	13,4	111,9	8,6
Xo'jayli	2,7	109,6	1,8
Chimboy	4,3	145,9	2,8
Shumanay	1,7	930,0	1,1
Ellikqal'a	4,7	73,2	3,0

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Nukus sh. 83,1

To'rtko'l 13,4

Mo'ynoq 9,2

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Nukus 1,5

Bo'zatov 0,5

Taxtako'pir 0,2


Respublika tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Nukus shahri **72,3** % ulush bilan **83,1** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Taxtako'pir tumani **45,2** % ulush bilan **0,2** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **32,4** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **98,6** % ni tashkil etdi.



Qoraqalpog'istonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-aprel oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **71,5** % ni va jami TSA'dagi ulushi **67,6** % ni tashkil etdi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-aprel holatiga ko‘ra, **155,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **87,4** mln. AQSH dollariga yetgan bo‘lsa, import 67,9 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)

Rossiya

TSA – 24,2
Eksport – 11,4
Import – 12,8



Qozog‘iston

TSA – 17,3
Eksport – 7,2
Import – 10,1



Qirg‘iz Respublikasi

TSA – 1,4
Eksport – 0,1
Import – 1,3



Belarus

TSA – 6,0
Eksport – 0,0
Import – 6,0



Tojikiston

TSA – 0,7
Eksport – 0,7
Import – 0,0



Ukraina

TSA – 0,2
Eksport – 0,2
Import – 0,0



Turkmaniston


TSA – 0,3
Eksport – 0,0
Import – 0,3




Qoraqalpog‘iston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya **11,4 mln**, Qozog‘iston **7,2 mln** hamda **Tojikiston** Respublikasi **0,7 mln** bilan qayd etildi.

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING YEOIIGA A‘ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



 Qoraqalpog‘iston Respublikasining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **49,1** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **18,9** mln. AQSH dollari, import hajmi esa **30,2** mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a‘zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Armaniston va Qirg‘iz Respublikasi) o‘rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta‘minlangan bo‘lib, yagona bojxona tizimiga ega bo‘lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma‘lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **94** taga yetdi va ular tomonidan **87,4** mln. AQSH dollari (*nomonetar oltindan tashqari*) qiymatidagi (*2022- yilning mos davriga nisbatan 75,3 % ni tashkil etdi*) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta‘minlandi.



XSST* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel, ulushi % da)



Qoraqalpog‘iston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o‘rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o‘rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo‘yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga



QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-aprel, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	116,0	87,4	80,8	75,3	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6,1	4,5	91,8	73,4	5,3	5,2
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	9,8	8,4	72,0	85,2	8,4	9,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	-	-	-	-	-	-
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	83,9	57,2	79,5	68,1	72,3	65,4
Sanoat tovarlari	13,1	16,6	82,8	127,0	11,2	19,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,0	0,0	946,9	17,8	0,0	0,0
Turli xil tayyor buyumlar	0,8	0,4	358,0	52,7	0,7	0,5
Xizmatlar	2,3	0,3	283,6	14,6	2,0	0,4

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,2 %** ni tashkil etib, ular kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (65,4 %), sanoat tovarlari (19,0 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari (9,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (5,2 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel)

XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	3 800,0	102,3
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	496,1	22,0
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	6,1	33,6
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	145,2	99,6
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	18,6	28,4
Qo'ziqorin va yog'och	723,4	-
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	767,6	187,2
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	462,7	261,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	11,7	-
Tabiiy yoki sun'iy gaz	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; mumlar; texnik aralashmalar va preparatlar	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	116,6	207,5
Birlamchi shakldagi plastmassalar	56 946,1	68,3
Efir moylari, rezinoidlar va parfumeriya	27,7	61,3
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	86,1	21,3


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	223,6	1080,1
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar Rangli metallar	16 267,1	133,3
Cho'yan va po'lat	-	-
Boshqa toifalarga kiritilmagan, metall bo'lmagan minerallardan olingan mahsulotlar	82,7	13,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	-	-
Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar	2,8	22,4
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	-	-
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	-	-
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	332,5	60,2
Har xil tayyor buyumlar	17,5	49,6
Poyabzal	-	-
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari.	51,0	30,8

Qoraqalpog'iston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida MDH mamlakatlarga **19,7** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **92,6** % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-aprel, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Turkiya, XXR, Rossiya, Qozog'iston, Latviya, Estoniya va Gruzija kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy Eksportdagi ulushi **94,7** % ni tashkil etdi.



RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-aprel, % da)





QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-aprel, yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'рни	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Turkiya	37228,5	33064,5	96,4	88,8	1	1
XXR	31481,8	19615,3	95,0	62,3	2	2
Rossiya	10247,9	11396,9	38,2	111,2	4	3
Latviya	18091,3	8946,0	128,9	49,4	3	4
Qozog'iston	6563,3	7188,1	61,2	109,5	5	5
Estoniya		947,0				6
Gruziya	730,9	927,3	70,2	126,9	11	7
Tojikiston	193,5	678,6	14,9	350,6	16	8
Birlashgan qirollik	1825,2	671,7		36,8	8	9
Afg'oniston	2427,7	556,2	122,6	22,9	6	10
Niderlandiya		421,5				11
Fransiya	830,0	354,3	66,9	42,7	10	12
Litva	0,0	312,0	0,0			13
Potrugaliya		284,4				14
Korea Respublikasi	655,8	281,2	174,1	42,9	12	15
Polsha	21,9	228,7	49,9	1044,6	28	16
Tayland	118,1	187,6		158,9	21	17
Ukraina	1613,1	163,4	21,6	10,1	9	18
Hindiston	88,7	148,0	151,4	166,9	23	19
Ozerboyjon	291,2	143,1	437,6	49,1	14	20



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TUMANLAR

KESIMIDA EKSPORTI
(2023- yil yanvar-aprel)*

	Hajm Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	87,4	75,3	100,0
Nukus shahri	56,3	65,7	64,5
tumanlar:			
Amudaryo	4,6	252,3	5,2
Beruniy	2,7	57,6	3,1
Bo'zatov	0,3	123,5	0,4
Qorao'zak	0,5	149,6	0,6
Kegeyli	1,8	73,2	2,1
Qo'ng'iro't	1,1	123,5	1,2
Qonliko'l	6,5	162,9	7,5
Mo'ynoq	1,5	58,7	1,7
Nukus	1,1	254,0	1,3
Taxiatosh	1,1	48,3	1,2
Taxtako'pir	0,1	28,0	0,1
To'rtko'l	1,6	68,6	1,9
Xo'jayli	0,4	64,7	0,5
Chimboy	2,2	116,3	2,5
Shumanay	1,7	936,4	2,0
Ellikqal'a	3,7	72,7	4,3

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Nukus sh. 56,3

Qonliko'l 6,5

Amudaryo 4,6

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Qorao'zak 0,5

Xo'jayli 0,4

Taxtako'pir 0,1


Respublika eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Nukus shahri **64,5** % bilan **56,3** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Taxtako'pir tumani **0,1** % bilan **0,1** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **341,0** ming. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **0,4** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **14,6** % tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (**70,3%**), safarlar (turizm) (**10,6** %), transport (**10,5** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI




2023- yilning yanvar-aprel oylarida import hajmi **67,9** mln. AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **82,9** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**25,7** %), sanoat tovarlari (**11,6** %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (**9,6** %) hisobiga to‘g‘ri keldi.



XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **67,9** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **6,7** mln. AQSH dollariga yetdi.



QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-aprel, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	81,9	67,9	106,0	82,9	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	12,0	10,4	110,2	86,8	14,7	15,4
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	6,8	8,9	158,3	130,6	8,3	13,1
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	4,8	6,7	95,6	138,8	5,9	9,8
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	2,5	1,9	111,3	78,8	3,0	2,8
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	9,9	6,5	118,0	66,0	12,0	9,6
Sanoat tovarlari	8,0	7,8	180,7	98,4	9,7	11,5
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	33,1	17,5	92,2	52,8	40,4	25,7
Turli xil tayyor buyumlar	1,1	1,4	45,1	130,2	1,3	2,1
Xizmatlar	3,8	6,7	102,3	177,4	4,6	9,8



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel)


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2022-yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Tirik hayvonlar	299,9	13,9
Go'sht va go'sht mahsulotlari	284,7	219,3
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	621,4	111,3
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	7 957,1	98,8
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	21,8	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	8 454,9	127,5
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	375,2	406,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	5 539,3	134,3
Ko'mir, koks va briketlar	1 148,0	164,4
Gaz, tabiiy va sun'iy	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari	1 932,5	78,8
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Organik kimyo moddalari	1 692,3	48,9
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	530,5	139,6
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	3 999,8	83,9
Noorganik kimyo moddalari	101,2	120,5

XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2022-yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Rezina buyumlari	406,2	388,7
Qo'ziqorin va yog'ochdan yasalgan buyumlar (xrom qoplangan mebel)	6662,3	112,2
Cho'yan va po'lat	249,5	24,0
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	9,3	163,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Avtomobillar	1 525,3	72,7
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	12 107,0	48,9
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	2 465,1	55,7
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	675,8	61,6
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	997,2	179,6
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	215,4	62,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	117,6	74,6
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	54,2	199,3



2023- yil yanvar-aprel natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **45,0 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,9 %** ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-aprel, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-aprel oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi **32** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Qozog'iston, Shvetsiya, Koreya Respublikasi, Belarus va Germaniya) jami importning **86,2 %** ni tashkil etdi.



RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-aprel, % da)





QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-aprel, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rnini	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
XXR	30127,9	14594,9	231,3	48,4	1	1
Rossiya	18594,3	12773,0	151,1	68,7	2	2
Qozog'iston	9372,2	10138,2	110,8	108,2	3	3
Belarus	316,5	6021,9	94,5	1902,8	20	4
Koreya Respublikasi	5917,1	5130,9	91,7	86,7	4	5
Shvetsiya	9,1	3847,3	0,1	42324,5	34	6
BAA	1882,3	3412,7	86,3	181,3	7	7
Germaniya	553,6	2572,5	14,0	464,7	16	8
Qatar		2294,4				9
Qirg'iz Respublikasi	776,6	1300,7	76,4	167,5	9	10
Turkiya	4390,0	1050,2	95,5	23,9	5	11
Litva	2301,1	690,0	735,9	30,0	6	12
Shvesariya	188,9	613,7	98,7	325,0	23	13
AQSH	395,6	522,0	254,7	131,9	19	14
Italiya	259,1	428,0	203,3	165,2	22	15
Yaponiya	846,8	354,8	697,8	41,9	8	16
Turkmaniston	557,5	311,3	72,4	55,8	15	17
Niderlandiya	529,9	275,3	64,1	51,9	17	18
Slovakiya	444,8	226,8	538,8	51,0	18	19
Eron	589,8	219,4	118,8	37,2	14	20



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TUMANLAR KESIMIDA IMPORTI (2023- yil yanvar-aprel)

	Hajm Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	67,9	82,9	100,0
Nukus shahri	26,8	91,9	39,4
tumanlar:			
Amudaryo	2,2	225,7	3,3
Beruniy	1,6	36,3	2,4
Bo'zatov	0,2	71,9	0,3
Qorao'zak	4,4	28,9	6,4
Kegeyli	0,0	0,1	0,0
Qo'ng'iro't	2,5	150,9	3,7
Qonliko'l	0,6	408,1	0,8
Mo'ynoq	7,7	107,6	11,3
Nukus	0,4	42,3	0,6
Taxiatosh	4,3	58,8	6,4
Taxtako'pir	0,1	104,7	0,2
To'rtko'l	11,8	122,6	17,3
Xo'jayli	2,3	124,3	3,5
Chimboy	2,1	198,3	3,1
Shumanay	0,0		0,0
Ellikqal'a	0,9	75,4	1,4

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari




Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Respublika importi tarkibida eng yuqori ulushni Nukus shahri **39,4** % bilan **26,8** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Kegeyli tumani **0,0** % bilan **0,0** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-aprel oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **6 672,2** mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining **9,8** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **77,4** % ga ko'paydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (**63,8** %), boshqa xizmatlari (**32,5** %), moliyaviy xizmatlar (**3,1** %) transport xizmatlari (**0,7** %) ga tegishli bo'ldi.